

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKNING OLDINI OLISH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN TADBIRLAR

Nazarov Komil Shamsuddinovich

Tadqiqotchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15240885>

Jinoyatchilikka qarshi kurashishida uning profilaktikasi katta rol uynaydi. O'zbekistonda turli bosqich ta'lim muassasalarining ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasida ushbu muammoga kuchli e'tiborb yerilgan¹. Voyaga yetmagan o'quvchilar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish yuzasidan olib borilgan chora-tadbirlar o'z samarali ta'sirini ko'rsatdi. 1993-yilda 1992-yilga nisbatan jinoyat sodir etishda qatnashgan o'smirlar o'rtasida hunar-texnika bilim yurti o'quvchilari soni 5 foizga qisqardi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Namangan viloyatlari va Toshkent shahri umumiy ta'lim maktablarida huquqbuzarlik bilan ro'yxatga olingan o'quvchilari sonikamaydi.

1992-yilda O'zbekistonda foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lmagan 1869 nafar o'smir jinoyat sodir etishda qatnashgan bo'lsa, shulardan 1442 nafari voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi inspeksiya ro'yxatidan o'rin olgan. Voyaga yetmaganlar o'rtasidagi ashaddiy jinoyatchilik o'sib bordi. 1991-yilda bu boradagi ko'rsatkich 342 tadan, 1992-yilda 420 tagacha o'sdi. Masalan, Buxoro tumanidagi 1-hunar-texnika bilim yurti o'quvchisi, 1977-yilda tug'ilgan Toshev fuqarolarning shaxsiy mulkini o'g'irlaganligi uchun 3-yilga hukm ijrosi kechiktirilib ozodlikdan mahrum qilingan. U bilan hechqanday alohida isholib borilmagan, xulqi nazorat qilinmagan, natijada Toshev 1992-yil fevral oyidan 1993-yilgacha 3-marta davlat va fuqarolarning shaxsiy mulkini o'g'irlaganligi uchun yana jinoiy javobgarlikka tortiladi².

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 14-moddasiga binoan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan o'n olti yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan shaxslarga nisbatan Voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiyalar to'g'risidagi nizomda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi.

Voyaga yetmaganlarning ma'muriy javogarliligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 21 sentyabrdagi "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini takomillashtirish haqida"gi 360-sonli qarorida voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqiy-tarbiyaviy ishlar susaytirib yuborilganligi, ular ustidan bo'lgan nazoratning bo'shligi, ish bilan ta'minlash va boshqa muammolar qoniqarli darajada hal etilmayotganligi oqibatida ko'plab yoshlar tomonidan huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etish, giyohvandlik va ichkilikbozlikka berilish, diniy aqidaparastlik yoki turli zararli oqimlar, guruhlar ta'siriga tushib qolish kabi salbiy holatlar uchrab turganligi haqida to'xtalib o'tilgan³.

Ёшларни ижтимоий меҳнатга жалб этиш, тарбиялаш, улар ўртасида ҳуқуқбузарлик ва жиноятчиликнинг олдини олишга мутасадди бўлган ўзини ўзи бошқариш органлари, ўқув муассасалари ва бошқа идораларнинг фаолиятини мувофиқлаштирувчи маҳаллий ҳокимликлар ҳузуридаги мавжуд комиссиялар ўз фаолиятини деярли тўхтатиб қўйганлиги таъкидланган.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish, ular tomonidan

¹ O'z MA, M-76-fond, 1-ro'yxat, 240-ish, 9-varaq.

² O'z MA, M-76-fond, 1-ro'yxat, 240-ish, 11-varaq.

³ Вазирлар Маҳкамасининг "Вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссия фаолиятини такомиллаштириш ҳақида" 2000 й. 21-сентябрдаги 360 сонли қарори 23-банд.

huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, bu yo'nalishda mas'ul bo'lgan davlat idoralari, jamoat tashkilotlari hamda voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish va yanada takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar haqida"gi nizom hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiya tarkibini tasdiqladi.

Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha komissiyalar o'z faoliyatini jamoatchilik asosida amalga oshiruvchi, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsiz qolish va huquqbuzarliklarning oldini olish organlari hisoblanadilar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi oltinchi bo'limi XV-XVI boblarida "Voyaga yetmaganlar javobgarligining xususiyatlari" belgilangan. Bu boblarda voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlanadigan jazo tizimi, jazo tayinlash qoidalari, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish hollari aks ettirilgan. Unda ko'rsatilgan normalar jinoiy javobgarlikning umumiy qoidalarini o'z ichiga olishi bilan birga, kodeksning 7-moddasida ko'rsatilgan insonparvarlik printsipligiga muvofiq, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilganda ularga nisbatan jazo turlarining ancha takomillashganligi, sud ularga jazo tayinlashda o'smirning ruhiy rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'ligini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagi kishilar va vaziyatning jinoyat sodir etilishidagi o'rnini e'tiborga olib, javobgarlik yoki jazodan ozod qilishda unga nisbatan davlat tomonidan beriladigan bir qancha engilliklarda ifodalangan⁴.

Jinoyat kodeksi 17-modasi, 5-qismiga muvofiq o'n sakkiz yoshga to'lgunga qadar jinoyat sodir etgan shaxslar umumiy qoidalariga asosan va Jinoyat kodesining oltinchi bo'limida nazarda tutilgan xususiyatlar hisobga olingan holda javobgarlikka tortiladilar. Jinoyat kodeksi Maxsus qismining 163 ta moddasida voyaga yetmaganlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

Voyaga yetmagan shaxs deganda, jinoyat sodir etgunga qadar 16 yoshga to'lgan, ammo 18 yoshga to'lmagan shaxs tushuniladi. Umumiy qoidaga muvofiq, 16 yoshga to'lgan, aqli raso shaxslar jinoyat sub'ekti yoshiga yetgan hisoblanadilar. Ba'zi jinoyatlar uchun sub'ekt yoshi 14 yosh qilib belgilangan. Javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o'ldirganlik jinoyati uchun sub'ekt yoshi 13 yosh etib belgilangan.

Hozirgi davrda voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi to'g'risida yetarli darajada statistik materiallar to'plangan va uni tahlil qilishning usullari ishlab chiqilgan. Bularning barchasi voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining ahvolini to'g'ri baholash, undaga miqdor va sifat ko'rsatkichlaridagi (strukturasi va boshqa ko'rsatkichlarini ham) o'zgarishlarni bilish imkonini beradi. Ayrim vaqtlarda alohida hududlardagi jinoyatchilikning miqdor va sifat ko'rsatkichlarida, shuningdek, jinoyat sodir etuvchi shaxslar va turli xil jinoyatlar tarkibida aniq bo'lmagan ma'lumotlar bo'lishiga qaramay voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining aniq ahvolini bilish imkoniyati bor.

1999 yili 290 nafar ota-onalar farzandlari tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatganliklari uchun ichki ishlar idoralarida hisobga olingan. Ayrim hollarda IIB V YeN xodimlari o'zlarining xizmat vazifalariga sovuqqonlik bilan qarab, maktabga bormay yurganb olalarga nisbatan tegishli choralar ko'rmagan⁵.

Masalan, Angren shahridagi 10 sonli maktabning 6 sinf o'quvchisi 1987 yilda tug'ilgan

⁴ Жиноят процесси. Махсус қисм. / З.Ф.Иноғомжонованинг умумий таҳрири остида. –Т.: ТДЮИ, 2003. – 320 бет.

⁵ Ўз МА, М-76-фонд, 1-рўйхат, 1509-иш, 5-варақ

F.Nuriddinov onasi vafot etgandan keyin qarovsiz qolib, o'zi kabi daydib yurgan Robert va Oleg ismli bolalarga qo'shib qolgan. Shahar IIBB YeH noziri B.H. tomonidan aniqlangan bo'lsada, bu haqida mahalla fuqarolar yig'ini va maktabma'muriyatiga xabar berilmagan. Robert va Oleg ismli bolalarni topish choralarik o'rilmagan⁶.

Angren shahri bo'yicha qarovsiz qolib, o'qishga bormasdan daydib yurgan 22 nafar voyaga yetmaganlar aniqlanib, IIBB YeHda hisobga olingan bo'lsada, bunday salbiy holatlarning kelib chiqish sabablari shahar xalq ta'limi hamda boshqa mutasaddi idoralar hamkorligida o'rganilmagan⁷.

Boysun tuman hokimligi qoshidagi voyaga yetmaganlar ishi bilan shug'ullanuvchi komissiya 2000 yili IIB dan yuborilgan 13 nafar voyaga yetmaganlarga taalluqli 11 ta materiallardan faqat 5 tasini ko'rib chiqib, qolganlarini o'z holiga tashlab qo'ygan. Joriy yilning 3 choragida esa ushbu komissiya umuman faoliyat ko'rsatmagan. Viloyat, shahar va tumanlardagi IIBB YeHlari faoliyatida ham jiddiy kamchiliklar mavjud edi⁸.

Xullas, Yangi O'zbekiston sharoitida voyaga yetmagan o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikka qarshi kurash profilaktikasi ish mazmunida o'zgarish kuzga tashlanadi. Jumladan, barcha hududlarda mahallama-mahalla yuqoridagi tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhlar tuzilib, aholi xonadonlariga uyma-uy yurish, fuqarolar bilan yaqindan suhbatlashish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Buning natijasida jamoatchilikning oilalar bilan qisman yaqinlashuvi vujudga keldi. Sovet tuzumi davrida jamoatchilik uchun yopiq bo'lgan oilalarning eshiklari jamoatchilik uchun ochildi, oila va mahalla muloqoti shakllana boshladi.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ички ишлар органларининг жиноятларни тергов қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги 2017 йил 18 апрелдаги ПҚ- 2898- сон қарори
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2001 йил 27 мартдаги “Ички ишлар органлари фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони. Ҳалқ сўзи газетаси. 2001 йил 28 март.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги «Ички ишлар органлари ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги ПҚ-3216-сон қарори
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 16 августдаги ПҚ- 3216 сон «Ички ишлар органлари ходимларини тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора- тадбирлари тўғрисида» ги қарори
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 29 ноябрдаги ПҚ-3413-сон “Ички ишлар органлари кадрлари билан ишлаш ва уларнинг хизматини ташкил этиш тартибини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қарори
6. Ички ишлар академияси жорий архиви маълумоти

⁶ Ўз МА, М-76-фонд, 1-рўйхат, 1509-иш, 5-варақ

⁷ Ўз МА, М-76-фонд, 1-рўйхат, 1509-иш, 5-варақ

⁸ Ўз МА, М-76-фонд, 1-рўйхат, 1509-иш, 6-варақ

7. Ички ишлар вазирлиги жорий архив маълумоти.
8. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Кадрлар бош бошқармаси маълумотлари.
9. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Ахборот Марказининг 2009 йил якуни бўйича Давлат статистик ҳисоботидан
10. Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Ахборот Марказининг 2002-2008 йиллар якуни бўйича Давлат статистик ҳисоботидан олинган.